

NARKOZNING ORGANIZMGA TA'SIRI

Beshariq Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi
Bobojonova Feruza Shuxrat qizi

Annotatsiya: *Narkoz (yun. narkosis — karaxtlik) — sun'iy yo'l bilan (ba'zi kimyoviy moddalar va boshqa omillar ta'sirida) hosil qilinadigan chuqur uyqu holati, bunda kishi hech narsani sezmaydi, ixtiyoriy harakat qila olmaydi, es-hushi butunlay yoki qisman yo'qoladi. Narkozni vujudga keltiradigan narkotik moddalarning bemor organizmiga yuborilish usuliga qarab ingalyasion (nafas yo'llari orqali), noingalyasion (nafas yo'llaridan boshqa yo'llar bilan) va kombinatsiyey Narkoz (narkotik moddalar ikki va undan ko'p usul bilan yubo-rilganda) farq qilinadi. Ingalyasion Narkozda efir, flyuotan, siklopropan va boshqa moddalarning bug'i xidlatiladi, bunda maxsus apparatlardan foydalaniladi.*

Kalit so'zlar: *Anesteziya, Anesteziolog, Premedikatsiya, Sedatsiya, Analgeziya, Umumiy narkoz, Inhalatsion narkoz, Intravenoz narkoz, Mahalliy (lokal) anesteziya, Regional anesteziya, Spinal anesteziya, Epidural anesteziya, Intubatsiya, Ekstubatsiya, Miorelaksatsiya, Monitorizatsiya.*

Аннотатсия: *Наркоз (греч. narcosis — оцепенение, онемение) — состояние глубокого сна, искусственно вызываемое под воздействием определенных химических веществ и других факторов, при котором полностью или частично утрачивается сознание, отсутствует чувствительность и возможность совершать произвольные движения. В зависимости от способа введения наркотических веществ в организм пациента различают ингаляционный (через дыхательные пути), неингаляционный (минуя дыхательные пути) и комбинированный наркоз (когда наркотические вещества вводятся двумя и более способами). При ингаляционном наркозе используются пары таких веществ, как эфир, фторотан, циклопропан и другие, при этом применяются специальные аппараты.*

Ключевые слова: *Анестезия, Анестезиолог, Премедикация, Седация, Анальгезия, Общий наркоз (Общая анестезия), Ингаляционный наркоз Внутривенный наркоз, Местная анестезия, Регионарная анестезия, Спинальная анестезия, Эпидуральная анестезия, Интубация, Экстубация, Миорелаксация, Мониторинг (Мониторизация)*

Annotation: *Narcosis (Anesthesia) (from Greek narcosis — numbness, torpor) — a state of deep sleep artificially induced under the influence of certain chemical substances and other factors, during which consciousness is completely or partially lost, sensation is absent, and the ability to perform voluntary movements is inhibited. Depending on the method of administering anesthetic drugs into the patient's body, a distinction is made between inhalational (via the respiratory tract),*

non-inhalational (by routes other than the respiratory tract), and combined anesthesia (when anesthetic substances are administered by two or more methods). In inhalational anesthesia, vapors of substances such as ether, fluothane, cyclopropane, and others are inhaled using special equipment.

Keywords : *Anesthesia, Anesthesiologist, Premedication, Sedation, Analgesia,, General anesthesia, Inhalational anesthesia, Intravenous anesthesia, Local anesthesia, Regional anesthesia, Spinal anesthesia, Epidural anesthesia, Intubation Extubation, Muscle relaxation, Monitoring.*

Umumiy narkozning salomatlikka jiddiy zarar yetkazishi haqidagi mish-mishlar bugungi kunga qadar tinmay keladi. Ayrim odamlar narkozdan jarrohlik amaliyotlaridan qoʻrqqandek qattiq qoʻrishadi. Aslida esa bu odatiy muolaja boʻlib, u hattoki stomatologiya sohasida ham keng qoʻllaniladi. Anesteziya haqidagi eng koʻp beriladigan 5 savolning javobini quyidan topasiz. Umumiy narkoz olgandan keyin xotira, yurak-qontomir tizimi bilan bogʻliq kasalliklar paydo boʻlgani, narkoz jigar va buyraklar faoliyatiga salbiy taʼsir qilishi haqidagi gaplar tez-tez quloqqa chalinadi. Mutaxassislar esa zamonaviy anesteziya bemorlar uchun mutlaqo xavfsiz ekanligini aytishadi. Ularning taʼkidlashlaricha, narkozdan keyingi nojoʻya taʼsirlar kamdan-kam hollarda kuzatiladi va jarrohlik amaliyoti oʻtkazilganidan keyin oradan bir necha kun oʻtib butunlay yoʻq boʻlib ketadi. Tibbiyot sohasi vakillarining aytishlaricha, bu safsatadan boshqa narsa emas. Bugungi kunda anesteziyaning umr davomiyligini qisqartirishini isbotlaydigan hech fanday ilmiy dalillar yoʻq.



Anesteziya qabul qilgan bemorlarning barchasi uning taʼsiri tugaganidan keyin oʻzlariga kelishadi. Jarrohlik amaliyoti vaqtida vafot etgan bemorlarga bundan mustasno. Zamonaviy tibbiyotda qoʻllaniluvchi anesteziya preparatlarining taʼsiri ularning organizmga kiritilishi toʻxtatilganidan keyin 5-10 daqiqa oʻtmay turib tugaydi. Keyingi yarim soatlik vaqt ichida bemorda yengil sarxushlik yoki uyquchanlikka oʻxshash holat saqlanib turadi va u ham bir necha soat ichida butunlay yoʻq boʻlib ketadi. Bu guruhni umumiy ogʻriq qoldiruvchi vositalar – umumiy anestetiklar deb ham yuritiladi. Chunki ular odam yoki hayvonga qaysi yoʻl bilan yuborilmasin butun organizmda ogʻriq sezish yoʻqolishi va boshqa oʻzgarishlar bilan davom

etadigan narkoz holatini keltirib chiqaradi. Narkoz moddalarining tarixiga nazar tashlasak, birinchi bo'lib azot I-oksidning narkoz holatini keltirib chiqarishi to'g'risida 1779-yilda Daviy tomonidan aytilgan va faqat 1844-yilda Uells narkoz moddasi sifatida qo'llagan. 1842-yilda xirurg Long jarrohlik operatsiyalarida dietil efirni ishlatgan va bu to'g'risida faqat 1852-yilda maqola chop etilgan. Stomatolog Morton esa 1846-yilda efirning narkoz moddasi sifatida ishlatib tishni og'riqsiz olib tashlagan va bu to'g'risida 1846-yilda o'z maqolasida xabar bergan. Shu sababli 1846-yilning 16-oktyabri narkozning kashf qilingan kuni deb rasmiy qabul qilingan.

Narkoz bosqichlari quyidagilar:

1-analgeziya bosqichi — narkoz moddasi nafas yo'li bilan yuborilgandan keyin boshlanib, es-xushni va og'riq sezgisini qisqa muddatga (1-2 daqiqaga) yo'qotish, tana mushaklarini bo'shashishi va harakatsizlanishi bilan ifodalanadi. Bu holat raush-narkoz deb yuritiladi. Mazkur narkoz davrida qisqa muddatli jarrohlik muolajalari (tishni olib tashlash, yiringlarni chiqarib yuborish, yopishib qolgan bog'lamlarni yaralardan olib tashlash va b.) bajariladi. Narkoz moddasini organizmga yuborish davom ettirilsa, qonda uning konsentratsiyasi osha borishi bilan narkozning ikkinchi bosqichi boshlanadi.

2-qo'zg'alish bosqichi - bunda ruxiy va xarakat qo'zg'alishi kuzatilib, tartibsiz harakatlar, noo'rin so'zlashish, baqirish, chaqirish, ashula aytish va boshqa o'zgarishlar bilan davom etadi. Orqa miya reflekslarini kuchayishi, tana mushaklarining tarangligini ortishi, tartibsiz qisqarishlar, arterial qon bosimini ko'tarilishi va nafasni, yurak urishini tezlashishi, qayt qilish, ko'z qorachig'ini kengayishi kuzatiladi. Bu o'zgarishlar asosan bosh miya po'stloq qismini tormozlanishi natijasida, po'stloq osti markazlarini nazorat etib turishning yo'qolishi, buyrak usti bezidan adrenalin gormonining ajralishini ortishi va boshqalar bilan tushuntiriladi. Narkoz moddasining bunday qo'zg'alish davrida ayrim xollarda kutilmagan asoratlar (nafasni to'xtab qolishi, yurakni titrashi va b.) kuzatilishi mumkin. Yosh bolalarda va xolsiz bemorlarda bu davr qisqa, spirtli ichimliklarga moyil kishilarda esa uzoq davom etadi. Narkoz moddasini yuborish davom ettirilsa keyingi bosqich boshlanadi.

3-bosqich - xirurgik narkoz davri. Bunda ikkinchi bosqichdagi qo'zg'alishlar pasayib, bemor tinchlanadi, tana mushaklari bo'shashadi, harakat to'xtaydi, orqa miya reflekslari, sezgilar (og'riq, harakat va taktil) yo'qoladi. Nafas chuqurlashib, sekinlashadi va bir tekis bo'ladi. Xirurgik narkoz davri 3 darajadan iborat. 1-darajada es-hush va og'riq sezgisi yo'qoladi, lekin kuchliroq ta'sir vegetativ o'zgarishlarga va harakat qo'zg'alishiga sabab bo'lishi mumkin. Mushaklar tonusi qisman saqlangan. Nafas chuqurlashgan va bir tekis bo'ladi, ko'z qorachig'i torayadi, yorug'likka yaxshi reaksiya beradi, yutish refleksi saqlanadi. 2-darajada yutish refleksi va boshqalar (orqa miya refleksi) sekin-asta yo'qoladi, ko'z qorachig'i torayadi, yorug'likka reaksiya susayadi, qon bosimi va yurak urishi bir me'yorda bo'ladi.

Mo'ljallangan jarrohlik davo yordami tugagach narkozning 3-davrida narkoz

moddasini yuborish to'xtatiladi. Qondagi narkoz moddasi nafas yo'li orqali chiqib boshlaydi (bu asosan yengil uchuvchan suyuqlik va gazsimon narkoz moddalariga tegishli). Natijada narkoz davridagi yuzaga kelgan o'zgarishlar asta-sekin yo'qola boradi, reflekslar, harakat, es-xush, sezgilar tiklanadi. Ayrim vaqtlarda es-xush tiklanishidan oldin bemorda harakat-ruhiy qo'zg'alish, qayt qilish va b. kuzatilishi mumkin. Narkoz chuqur bo'lsa, es-xushning tiklanishi cho'ziladi. Demak, uyg'onish davrida narkozning bosqichlari teskari yo'nalishda namoyon bo'ladi. Uyg'onish davridan keyin ayrim bemorlar chuqur uyquga ketadi va u bir necha soat davom etadi.

a'sir mexanizmi. Narkoz moddalarining asosiy farmakologik ta'siri markaziy nerv tizimiga qaratilgan. Ularning ta'siri natijasida birinchi galda bosh miya po'stlog'ining faoliyati susayadi va narkozning birinchi davri boshlanadi. Narkoz moddalarining qondagi kontsentratsiyasi ortib borgan sari bosh miya po'stlog'ining idora etadigan, nazorat qilish faoliyati zaiflashadi. Bu narkozning ikkinchi qo'zg'alish davriga to'g'ri keladi.

Uchinchi davrda esa orqa miya faoliyati butunlay tormozlanadi, vaqtinchalik qaytar falajlikka uchraydi. Bunda uzunchoq miyada joylashgan hayot uchun zarur markazlar (nafas, qon-tomir harakat va b.) faoliyati saqlanadi, chunki ularning narkoz moddasiga sezuvchanligi kamroq. Narkoz moddasining qondagi miqdori haddan tashqari ortib ketsa, uzunchoq miya markazlari ham tormozlanadi, falajlanadi. Bu narkozning zaharlanish, qaytmas falajlik davri deyiladi. Buni oldini olish va bartaraf etish tadbirlari ko'rilishi shart.

Xulosa qilib aytganda, narkoz davrida kuzatiladigan bosqichlar, o'zgarishlar narkoz moddasining qondagi kontsentratsiyasiga va markaziy nerv tizimi bo'limlarining sezuvchanlik darajasiga ko'p tomonlama bog'liq. Jarrohlik amaliyotining xavfsiz, asoratsiz, muvaffaqiyatli o'tishini asosan anesteziologning mahorati ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. "ANESTEZIOLOGIYA REANIMATOLOGIYA VA INTENSIV TERAPIYA" O.SH.Eshonov.
2. TEZ TIBBIY YORDAM VA FAVQULODDA HOLATLAR TIBBIYOTI" A.K. Jamolov, B.N. Toshmamatov, N.J. Roziyeva, M.A. Rasulova
3. "XIRURGIYA VA REANIMATSIYA ASOSLARI" A.J.Xamrayev, A.V.Alimov, T.S.Azamxo'jayev
4. "XIRURGIYA" J.A.Xamrayev